



TILAME

2-bosqich 1-semestr

17-mavzu: O‘tilgan mavzular yuzasidan takrorlash

Ona tili

Abdukadirova M.M



TILAME

Reja:

- 1.O‘tilgan mavzular bo‘yicha savollarga javob berish.
- 2.Mashqlar yozish va topshiriqlarni bajarish.
- 3.Test ishslash.



Quyidagi savollar va topshiriqlarga javob bering.



TILAME

- 1.Teng bog‘lanishdagi teng bog‘lovchi vositalarni ayting.
- 2.So‘z birikmasining kesimlik shakliga ega emasligini tushuntiring.
- 3.Hokim qism bilan tobe qismni bir-biridan qanday farqlash mumkin?
- 4.Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qanday vositalar yordamida bog‘lanadi?
- 5.Kelishik va ko‘makchilar o‘rtasidagi sinonimiyanı tushuntiring.
- 6.So‘zlar o‘zaro birikishi uchun mantiqiy bog‘liqlik kerakmi?
Misol bilan isbotlang.



Egaga doir savol va topshiriqlar.

1. Gapning qanday bo‘lagi ega deb ataladi?
2. Ega ,asosan, qanday savollarga javob bo‘ladi?
3. Ega qaysi kelishik shaklida bo‘ladi? U otning qaysi grammatik shakllarini qabul qilishi mumkin?
4. Gap egasi qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi? Misollar keltiring.



To‘ldiruvchiga doir savol va topshiriqlar.



TIIAME

1. To‘ldiruvchi qanday gap bo‘lagi hisoblanadi?
2. Qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?
3. Vositali to‘ldiruvchi qanday ifodalanadi?
4. Vositasiz to‘ldiruvchi qanday ifodalanadi?
5. Kelishikli to‘ldiruvchiga misol keltiring.
6. Ko‘makchili to‘ldiruvchiga misol keltiring.
7. Mustaqil to‘ldiruvchi qanday ifodalanadi?
8. Nomustaqil to‘ldiruvchi qanday ifodalanadi?



TILAME

Holga doir savol va topshiriqlar.

- 1.Hol qanday gap bo‘lagi hisoblanadi?
- 2.Qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?
- 3.Necha xil ma’no turi bor?
- 4.Mustaqil hol qanday hol hisoblanadi?
- 5.Nomustaqil hol qanday hol hisoblanadi?
- 6.Hollar tuzilishiga ko‘ra necha xil?
- 7.Qanday hollar murakkab hollar hisoblanadi?



TIIAME

Savollarga javob bering.

- 1.Qanday bo‘laklar uyushiq bo‘laklar hisoblanadi?
- 2.Qaysi gap bo‘laklari uyushadi?
- 3.Umumlashtiruvchi bo‘lak qanday bo‘lak hisoblanadi?
- 4.Uyushiq va umumlashtiruvchi bo‘laklar qanday munosabatda bo‘ladi?
- 5.Uyushiq va umumlashtiruvchi bo‘lakli gaplarda qanday tinish belgilari qo‘llanadi?



TIIAME

Takrorlash uchun mashqlar:

**I.Mashq. Gaplarning ega va kesimini aniqlab,
kerakli o'rinda ular orasiga tire qo'yib ko'chiring.**

1. Qo'l yugurigi oshga, til yugurigi boshga. (Maqol.)
2. Mehmonlarning aksariyati o'rta yoshli, o'ttiz-qirq orasidagi odamlar edi.(O.)
3. Yaxshining gapi moy, yomonning gapi loy. (Maqol.)
4. Hosilning otasi suv, onasi yer. (Maqol.)
5. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi shu. 6. Karim ham shu zavodda faol a'zo.7. Mardga o'lim yo'q. (Maqol.)8.Ozod yuraklarga baxt nuri to'lgan.(U.)



II. Matnni o‘qing. Daftaringizga quyidagi chizmani chizing va gap bo‘laklarini unga joylashtirib yozib chiqing.



TILAME

Ega	Kesim	To‘ldiruvchi	Aniqlovchi	Hol
			qaratqich sifatlovchi	izohlovchi
Sulton Jo‘ra	tug‘ildi	ota-onasidan	Shoirning	shoir

Shoir Sulton Jo‘ra 1910-yil Shofrikon tumanida tug‘ildi. 3-4 yasharligida ota-onasidan yetim qoldi. 1920-yilda mактабга kirdi. 1927-yilda Buxoro ta`lim-tarbiya bilim yurtida o‘qidi. She`r va maqolalari bilan matbuotda tez-tuz ko‘rina boshlaydi.



TILAME

1940-yillarda «Fidokor», «Moskva» kabi she`riy to‘plamlari bosilib chiqadi. Uning «Bruno» dostoni, «Zangori gilam» va «Qaldirg‘och» ertaklari o‘zbek bolalarining eng sevib o‘qiydigan asarlari bo‘lib qoldi.

Vatanparvar shoir Ulug‘ Vatan urushi frontlarida qatnashib, qurol va qalam bilan jangga kirdi. 1943-yilning 14-noyabrida Belorussiyaning Gomel viloyatida borgan shiddatli janglarning birida qahramonlarcha halok bo‘ldi. Hozir Loyevsk tumani Borichevka qishlog‘idagi shoir qabri ustiga uning byusti o‘rnatilgan. Yaqinda yana bir xushxabar tarqaldi: Bir guruh yirik so‘z san`atkorlariga Nikolay Ostrovskiy nomidagi mukofot berildi. Bular orasida o‘zbek shoiri Sulton Jo‘ra ham bor.

- III.Ko‘makchi vositasida ifodalangan to‘ldiruvchi va hollarni aniqlang; ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida ikki ustun shaklida ko‘chiring; farqini izohlang.
- I.Farg‘ona... o‘zining bitmas-tuganmas boyliklari, so‘lim bog‘lari, shalola suvlari, poyonsiz paxtazor, gulzorlari bilan kishilar ishqini qozongan, ko‘kragini baland ko‘targan bu oltin vodiyni kim bilmaydi! Ayniqsa, bu yerda xalq uchun, Vatan uchun dushmanlarga qarshi o‘z aziz jonlarini fido qilgan bahodir kishilarimiz ozmunchami!
- Go‘zal Farg‘ona va uning olovli yillari va jasoratli kishilarini to‘g‘risida gapirish kishiga zavq va shavq bag‘ishlaydi. (A.Po‘lat.)
- II. 1. Biz xalqni asrab qolmoq uchun, xalqqa dalda bermoq uchun shu erda qolishimiz kerak. (S.B.) 2. Torgina yolg‘izoyoq yo‘l ba`zan quyosh nurini emib yotgan gulzor o‘tloq orasidan o‘tsa, ba`zan qalin o‘rmon orasiga kirib ketadi. (A.Kolbintsev.)



TIIAME

- **IV.Gaplarni ko‘chiring. Ravish hollarini topib, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.**

1. Bayram kunlari talabalar Ulug‘ Vatan urushida qahramonlarcha halok bo‘lgan kishilar sharafiga o‘rnatilgan memorial haykalga gulchambar qo‘ydilar. 2. SHu so‘zlarni aytganda, u qo‘llarini qaerga qo‘yishni bilmay, ko‘zlarini javdiratib turardi. (G.Kochetkov.)
3. Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig‘laganicha narigi uyga kirib ketdi. (A.Q.) 4. U mardlarcha jang qildi. Yo‘lchi suqila-suqila oldinga intildi. (O.) 5. U kulib gapirdi. 6. o‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir. (Maqol.)



V.Quyidagi ibora-qoidalami qaysi gap bo‘laklariga tegishli ekanligini guruhlab yozing.Matndagi imlo xatolarini to‘g‘irlang.



TIIAME

- - Unvon, kasb, laqab, o‘xshatish ma’nolarini bildirgan so‘zlar; ikkinchi darajali gap bo‘laklariga hokim bo‘lak sanaladi; ko‘pincha qaratqich kelishigini anglatuvchi so‘z; mutlaq hokim emas, hol bilan ba’zan bir xil so‘roq oladi; moslashuv yuzaga keladi; topishmoqlarda ko‘pincha yashirinadi; asosan fe’l bilan ifodalanadi;
- - ma’no jihatdan to‘qqiz turga bo‘linadi; kim bilan?, nima haqida"??, Kim tomonidan? so‘roqlariga javob bo‘ladi; zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini bildiradi; ot+ot so‘z turlcuinlaridari ham ifodalanadi; to‘ldimvchi bilari ba’zan bir xil so‘roqqa javob bo‘lib; fe’l kesimga bog’lanadi; faqat bosh kelishikda bo‘ladi; asosah ravish;



- - ravishdoshdan ifodalanadi; egalik va ko‘plik qo‘shimchalari bilan otlashgan so‘zlar tushum va qaratqich kelishigi bilan kelgan so‘zdah ifodalanmaydi; ba’zan chiqish kelishigida ham keladi; fe’l kesimga bog’lanadi; asosan otga bog’lahadi;
- - shaxs jihatdan moslashishi shart; bitishuv aloqada bo‘ladi; asosan qaratqich kelishigini olib moslashuv hosil qiladi; tushmn, jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt va ko‘makchilaryordamida bog’lanadi.
- 1. Ega...
- 2. Kesim...
- 3. To‘ldiruvchi...
- 4. Aniqlovchi...
- 5. Hol...



TIIAME

O‘tilgan mavzular bo‘yicha testlar

1. Yasama so‘zlar teng bog‘langan javobni toping

- a) sog‘lom fikrli b) jo‘shqin va serqirra
c) keskin va murakkab d) muhabbat bilan tug‘ilmood

2. Daftarning varag‘i va daftar varag‘i birikmalarida qanday farqlanish bor?

- a) uslubiga ko‘ra b) aniqlik ma`nosi bor yoki yo‘qligiga ko‘ra
c) butun va qism ma`nosini bildirishiga ko‘ra
d) birikmalar o‘rtasida mazmuniy yoki uslubiy farq yo‘q

3.Sifat boshqaruvi qaysi qatorda berilgan?

- a) yaxshi niyat, serdaromad ish
c) burchga beparvolik, ahdiga sodiqlik

b) o'ziga ma'lum, yo'lida intizor
d) o'qdan tez, haqiqatga yaqin

4. Bitishuvli birikmalardan qaysi biri otli birikma emas?

- a) ko‘tarilgan masala b) sekin yurgan c) kishilarning g‘ala-g‘ovuri d) do‘stlar bilan uchrashuv
g‘



TIIAME

5. So‘z birikmasi berilgan qatorni toping

- a) ko'zi tushdi b) o'q ko'ngil c) sozni chalib d) o'rta Osiyo

6. Teng bog‘lanishli birikmani toping

- a) oppoq paxtazor
b)talabalar o‘qimoqdalar
c)jamoa xo‘jaligi a`zolari va hasharchilar
d)karimning kitobi

7. Grammatik vosita orqali bog‘langan birikmani toping

- a) serhosil dala b) ma`noli so‘z c)katta daryo d)ertak haqida bayon qilmoq

8. Bog'lamani topping

- a)Humoyun do'stlarini aytib keldi. b)E.Vohidov — xalq sevgan shoir.
 - c) Deydilar: sog'liq hayot bergen ehson ekan.
 - d) o'rmonjon to'nini teskari kiyib oldi.



TIIAME

9. Sodde fe`l kesimni toping.

- a) Odil uyalganidan qizarib ketdi. b) Men uy inshosi rejasini tuzib chiqdim.
- c) Har bir o‘quvchi uy vazifasini puxta bajarishi lozim.
- d) Barcha gaplarda fe`l kesim bor.

10. Odobi va hunari bo‘lmagan kishidan baxt va omad ketadi. Gapdagi ismlar qaysi gap bo‘lagi vazifasini bajargan?

- a) aniqlovchi, to‘ldiruvchi ,ega
- b) to‘ldiruvchi, hol ,ega
- c) ega, aniqlovchi, hol
- d) to‘ldiruvchi, ega

11. Jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar qanday gap bo‘lagi vazifasini bajaradi?

- a) vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi
- b) vositali to‘ldiruvchi, o‘rin va payt holi
- c) faqat vositali to‘ldiruvchi
- d) vositali to‘ldiruvchi, o‘rin va vaziyat holi

12. Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatiga — Roziyani avvalgiday go‘zal, shod ko‘rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi. Gap haqidagi hukmni belgilang.

- a) kiritma gapli va ajratilgan bo‘lakli gap
- b) uyushiq va ajratilgan bo‘lakli gap
- c) uyushiq bo‘lakli gap
- d) ajratilgan bo‘lakli gap



TILAME

13. Demak, maktabni bitirib, o‘qishga kirmoqchisan? Gapdagi kirish so‘z qanday ma`noni bildirgan?

a)ishonch va tasdiq b)fikrning kimga qarashli ekanligi c)fikrning tartibi d)fikrga yakun yasash

14. Hol ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

a) Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko‘rmagansan.
b) Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin. c)Barchasi aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar. d)Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladi.

15. To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni belgilang.

a) Qayerda janjalli ish bo‘lsa, o‘sha kishini ro‘para qilamiz. b) Yutugimiz shundaki, har bir xodim o‘z vazifasini yaxshi biladi. c)Shohga bildirdilarki, navkarlar boshqa puldor beklar xizmatiga o‘tib ketdilar. d)Ukam o‘qisin deb, kitob sotib oldim.



Uyga vazifa: O‘tilganlarni
tarorlash.